

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR BILIMINI TA'MINLOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Usarova Dildora Abduxakim qizi

Nizomiy nomidagi TDPU

magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan. SHuningdek, O'zbekistonda innovatsion jarayonlar, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilingan.

Key words: yeduction system, innovative processes, interactive methods, novation, innovation, teaching and pedagogical activity, social factors, creativity, quality of education, modern knowledge, practical skills and abilities.

Bugungi innovatsiya sohasidagi ilm-fan taraqqiyotining har qanday yutug'i insoniyat mushkulini oson qilishga, uning muammolarini qisman bo'lsa-da hal etishga xizmat qilishi kerak. SHunday bo'lyapti ham: yillar davomida fazodan mustaqil tarzda turli ma'lumotlarni yerga jo'natishdan tortib tabiiy va texnogen hodisalar vaqtida inson kirishi imkonsiz joylarga ham yetib borayotgan, jarrohlarni ko'zi va barmoqlari ilg'amaydigan eng mayda to'qimalargacha batafsil va xatosiz tekshira olayotgan aynan shu – katta-kichik sun'iy onglashtirilgan turli robotlar, mashinalar uskunalardir. Avvaliga xizmat ko'rsatish joylari, bemorlar va yolg'iz keksalarga ko'mak uchun ishlab chiqilgan bunday «temir odamlar» yildan-yilga har tomonlama takomillashib, fikrlashda insoniyat bilan bahslashishga shay turibdi, go'yo. YA'ni, bir davrlar o'ziga qanot bog'lab uchmoqni orzu qilgan odamlar avlodlari bugun temirga «jon kiritish» ustida bosh qotirmoqda.

Komp'yuter texnologiyalari, axborot kommunikatsiya vositalarining ta'limda joriy etilishi bilan ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi sub'yektlarning faoliyatlarida keskin burilish jarayoni sodir bo'ldi. CHunki, axborot texnologiyalari orqali vaqtning tejallishi, sifatli va samarali ta'lim olish, sodir bo'layotgan voqea, xodisa va jarayonlarning ayni paytida xabardor bo'lish imkoniyatlarining oshishi ta'limning yangi qiyofaga ko'tarilishini, tarbiya jarayonini esa dolzarblashuviga olib keldi. Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim dargohlarida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarining o'rniga robotlarning dars jarayonini olib borishi taxsinga sazovordir. Masalan, AQSHning Jorjiya Texnologiya institutida robot o'qituvchi – Jill Uotson (Jill Watson) dasturlash dizayni bo'yicha talabalarga dars berib kelmoqda. Jill Uotson — bu robot, IBM Watson bazasida ishlaydigan sun'iy intellekt tizimi hisoblanadi, ammo shu 2 vaqt mobaynida biror talaba robot-o'qituvchi bilan muloqotda buni sezmagandligini ta'kidlaganlar.

Xitoyda bog'chalarda va boshlang'ich ta'lim maktablarida o'qituvchilik qilishni Keeko nomli robotga ishonib topshirishdi. Robot o'zining ishini ustamonlik bilan bajarib kelmoqda. O'qituvchilik jarayoniga robotlarni joriy qilish muvaffaqiyatli kechayotgan bo'lsa-da, mutaxassislar baribir bolalar tirik odam bilan muloqot qilishi zarur deyishmoqda. Albatta, robotlar anchayin barqaror, ishonchli va oson mashg'ulot o'tkazadi, ammo ular tirik hissiyotlarni hozircha ta'minlay olmaydi.

Lekin, globallashuv jarayoni davrida texnika va texnologiya taraqqiyoti inson ongi va dunyoqarashidan ancha ilgari ketmoqda. Ayni paytda, texnika taraqqiyoti natijalari bo'lmish zamonaviy texnologiyalar ta'lim va tarbiya jarayonlarida yutuqlarga va samarali natijalarga erishish omili bo'lish bilan birga, unga ma'lum darajada salbiy ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Uning bu jarayondagi ijobiy natijalarini inkor etmagan holda, ayrim salbiy oqibatlari haqida to'xtalamiz.

“Texnogen sivilizatsiya insoniyatga juda ko'p yutuqlar keltirganday bo'lgan edi..., – deydi V.S.Stepanov. – Ko'pchilik odamlar yaxshi kelajakka bo'lgan o'z orzu umidlarini shu sivilizatsiya taraqqiyoti bilan bog'lagan edilar. Atigi yarim asr oldin aynan texnogen sivilizatsiya insoniyatni o'zini o'zi halok etadigan, jar yoqasiga olib kelib qo'yadigan global krizisga duchor etishini hech kim hayoliga keltirmagan edi”. O'sib kelayotgan yosh avlod vakillari bugungi kunning yutuqlaridan bahramand bo'lish bilan birga uning salbiy ta'sirlaridan himoyalaniş jarayonlariga nisbatan innovatsion yondashuvni shakllantirishni taqazo qilmoqda.

Umuman olganda esa, XXI asr boshlanishiga kelib nafaqat faylasuf mutafakkirlar, balki olimlar ham global inqiroz, insoniyat va madaniyat xalokati to'g'risida ilmiy xulosalarni oldinga surmoqdadar. Masalan, Kembrij universiteti matematika va va nazariy fizika kafedra rahbari bo'lgan, Nobel mukofoti sovrindori Stiven Xoking yer aholisi sonining keskin ortib ketishi oqibatida insoniyat hayoti berk ko'chaga kirib qolganini e'lon qildi. Endilikda, uning fikriga ko'ra, insoniyat oldida ikki yo'l - yo yadro urushi, yoki insoniyat O'rta asrlar davrida yashagandek yashashga o'tishi qoldi. "Lekin men pessimist emasman, shuning uchun fan olimlari bu muammoning yechimini topadi deb o'ylayman" – deydi u.

S.Xokingning hisob kitoblariga ko'ra, insoniyat hayotidagi yalpi inqiroz kompyuter texnologiyalari taraqqiyoti tufayli ham sodir bo'lishi mumkin. YA'ni, uning tushuntirishicha komp'yuterlarning intellekti inson intellekidan orqada ekanida xatar yo'q, lekin keyinchalik uning "miyasi" 3 tobora yaxshi va tez ishlaydigan vaqt keladi. SHunda kompyuter ongi inson biologik ongini boshqarishga o'tadi. Bu esa insonning "aqli inson" sifatidagi inqirozidir. Buning oqibatida kompyuter planeta hayoti uchun eng muhim barcha manba va vositalarni – energiya, transport, mudofaa, informatsiya va boshqalarni - o'z nazorati ostiga oladi. Lekin, fan-texnika va texnologiya qanchalik kuchli taraqqiy etmasin, qanday kashfiyotlar qilmasin, undan turli manfaatdor kuchlar o'zlarining mafkuraviy maqsadlari yo'lida noxolis foydalanish imkoniyati hamisha mavjud. Bunday holatlarni jamiyatning ta'lim-tarbiya jarayonlarida ham uchratish mumkin bo'ladi.

XIX asr oxirlariga kelib insoniyat texnogen sivilizatsiya biosferani, noosferani va inson hayotini butkul vayron etayogan regressive jarayonni boshdan kechirayotgani haqidagi haqiqatga ro'para keldi. Fan va uning asosida avj olgan texnologiyalarning salbiy oqibatlari keng oshkor bo'ldi, ekologiya muammolari eng dolzarb muammolarga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, inson ma'naviy madaniyati, uning ichki dunyosi, ruhiyati masalasiga jiddiy e'tibor berishga, inson o'zining nobarkamolligini bartaraf etishi va barkamol jamiyat qurishi kerakligi haqidagi g'oyalarning oldinga surilishiga olib keldi. Milliy o'zligimiz shakllana boshlagan hozirgi davrda biz asliy ma'naviy qadriyatlarimizga, madaniyatimizga qaytishning barcha choralarini ko'rishimiz zarur. Buning uchun esa avvalo o'sha buyuk qadriyatlarimizning mazmunini yangi shart sharoitlarga tatbiqan qayta tiklab olishimiz kerak.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biri ushbu jarayonlarga mos keladigan, yangicha fikrlovchi avlodni tarbiyalashdan iborat bo'lib qolmoqda. SHuning uchun ham dunyodagi barcha davlatlar tamonidan hamma zamonlarda ham ijtimoiy omillar, jumladan, demokratiya, insonparvarlik tamoyillari jamiyat a'zolariga ruhiy oziqa, ma'naviy madad ekanligi tan olingan. Bu tamoyil va qadriyatlarning mazmun-mohiyati haqidagi tasavvurlarni oilada hamda ta'lim muassasalarida shakllantirilsa, yoshlar ongi, tarbiyasi, ularning dunyoqarashi va turmush tarzida jiddiy ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi hech kimga sir emas. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, ta'lim tizimini takomillashtirish jamiyatimiz ta-raqqiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etmoqda. Bu miqdor boshqa mamlakatlar ko'rsatkichlaridan ikki yarim barobar ko'pdir. O'zbekiston aholisining 40 foizi esa 18 yoshgacha bo'lgan yoshlardir.[2,5-6- b] Ayniqsa, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va ularning dunyoqarashini innovatsion kreativ yondoshuv asosida rivojlantirishga alohida e'tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda «mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash»[3] ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev bu haqida shunday degan edi: "Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda. YA'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda...". [4, 168- b] Keng ko'lamli islohotlarning muhim bo'g'ini – innovatsiyalar ham bugun har bir sohada bo'lgani kabi oliy ta'lim tizimida ham o'zining afzalliklarini namoyish qilmoqda. Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida hukumatimiz tamonidan qabul qilingan bir qator me'yoriy hujjatlarda eng muhim bo'lgan bir qator vazifalar belgilangan. Xususan, har

bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish ana shular jumlasidandir. Aytish mumkinki, bu vazifalar har bir professor o'qituvchidan ijodkorlik va izlanuvchanlikni talab etadi.

Ta'lim tizimiga kirib kelayotgan innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur tizimda shakllanayotgan yangicha yondashuv hisoblanadi. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda oliy ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Ushbu fikrning mohiyatini to'la anglash uchun "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lamini asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya xususida fikr yuritayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsa innovatsiya degan tushuncha shakllanadi. Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham tadqiqotlar orqali o'z isbotini topgan. Innovatsion faoliyat esa – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Ta'limdagi innovatsiyaning eng katta yutuqlaridan biri-bu innovatsiyalarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yordam berishi, fanlar mazmunini oson yetkazib bera olishi, qabul qilish jarayonidagi yengilliklari, innovatsiyalarni bilimni bexato va yangi resurslardan foydalanib to'liq yetkazib bera olishi bilan izohlanadi. Asli mohiyatiga ko'ra yangi bilimlarni berish jarayoni yangiliklar tizimidan iborat bo'lib, innovatsion jarayonni tashkil etadi. Hozirda "Innovatsiya (yangilik kiritish) yangi murakkab fundamental bilimlarni takomillashgan va o'ziga xos, intellektual ijodiy yo'llar orqali yetkazib berishdir" [5, s. 33]. Bizning fikrimizcha innovatsion jarayon faqat bilimlar yetkazib berish jarayonida tugallanmasdan, balki talabalarni olingan bilimlarni keyingi fundamental tadqiqotlari uchun, ratsionalizatorlik ishlarini tashkil etishi, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotning mavjud muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ta'limdagi innovatsiyalar talabaning keyingi ish faoliyatiga ko'mak berishi bilan ya'ni shaxs va jamiyat munosabatlarini barqaror rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi metodik vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish maqsadga muvofiqdir: 1) professor-o'qituvchilar "interfaol metod", "strategiya", "texnologiya" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniq tushunib olishlari lozim. Mazkur tushunchalarning mohiyatini to'g'ri angelay olmaslik ularni qo'llashda ko'plab metodik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Oliy ta'limda asosiy e'tibor o'qitish jarayonini loyihalash (texnologik model) va rejalashtirish (texnologik xarita)ga, ya'ni texnologizatsiyaga qaratilishi kerak; 2) oliy ta'limda fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda metodik qoidalar va ko'rsatmalarga rioya qilinishi kerak. Aniq metodik ko'rsatmalarga rioya etish orqali interfaol metodlarni samarali qo'llash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi; 3) pedagogika malaka oshirish tarmoq markazida "Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat" modulini o'qitishda asosiy e'tiborni professor-o'qituvchilarni o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtira olish ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishga qaratilishi lozim; 4) fanlar bo'yicha ta'lim texnologiyalarini yaratishda xilma-xillik, ijodiylik, innovatsion yondashuvlarga asoslanish, bir qolipga tushib qolishdan saqlanish maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda fanlarning, mashg'ulot shakllari, mavzularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish o'rinli bo'ladi; 5) oliy ta'lim muassasalarida "Innovatsion markaz" faoliyatini yo'lga qo'yish, mazkur markaz kuch va imkoniyatlaridan professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida foydalanish ehtiyoji mavjud. Ta'limga innovatsiyalar kirib kelishi dialektik tavsifga ega bo'lgani uchun ham yangiliklarni yaratish, joriy etish, o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq

etishga doir vazifalarni muvafaqqiyatli hal etishga xizmat qiluvchi innovatsion markaz faoliyatini yo'lga qo'yish har jihatdan samarali bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksakligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg'un rivojlanishiga qanchalik yo'naltirilganligi, innovatsiyalarni tadbqiq etilganligi bilan ham o'lchanadi. Demak, ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, talabalarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, chet el ilg'or tajribalarini o'rganish va ta'lim amaliyotiga tadbqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://news.un.org/565442-government-bodies-must-serve-people-uzbek-president>
2. Turdiyeva R. YOshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish. – T.: «O'zbekiston», 2014. -5-6-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF- 4947-sonli Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6- son, 70-modda.
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.T.: "O'zbekiston", 2017. B.-168.
5. Bakumsev N.I. Innovatsionniy menedjment i oxrana promishlennoy sobstvennosti. Volgodonsk, 2003.
6. Kaplan S. L. Stanovleniye i razvitiye innovatsionnix protsessov v rossiyskom obrazovanii: dis. ... d-ra ped. nauk. M., 2004, s. 347.